



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2021- yil yanvar-mart (dastlabki ma'lumot)



2021- yil yanvar-mart oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2591,8 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **6,9 %** ga o'sishni ta'minladi.

2021- yil yanvar-mart oylarida

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi:

**2591,8
ming so'm**


O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati:

6,9 %

Yuridik shaxslarda xodimlar soni va mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromad

(2021- yil yanvar-mart; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	Korxonalar va tashkilotlar soni, birlik	Xodimlar soni, kishi	Ish haqi fondi, mln.so'm	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm
Respublika bo'yicha - jami	3080	157 055	1 221 151,8	2 591,8
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	39	14 125	166 961,0	3 940,1
Qurilish	10	2 306	19 161,0	2 769,7
Savdo	14	1 692	12 938,5	2 549,0
Tashish va saqlash	12	8 466	107 191,8	4 220,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4	101	744,5	2 457,2
Axborot va aloqa	37	1 177	9 614,0	2 722,7
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	78	2 917	47 347,5	5 410,5
Ta'lim	1411	73 287	476 722,2	2 168,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	80	28 625	174 983,4	2 037,7
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	77	2 604	15 464,2	1 979,5
Boshqa faoliyat turlari	1318	21 755	167 584,8	2 567,8



Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-mart, kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Maktabgacha ta'lim sohasi



1 198,3 ming so'm

Umumiy o'rta ta'lim sohasi



2 078,6 ming so'm

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



2 168,3 ming so'm

O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim sohasi



1 711,2 ming so'm

Oliy ta'lim sohasi




4 312,6 ming so'm

Ta'lim sohasida 1411 ta muassasada 73287 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 46,7 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 476,7 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 39,0 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2168,3 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 4,9 % ga o'sdi.

Ta'lim iqtisodiy faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-mart; kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **2762,6** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 127,4 %), Kegeyli tumanida **2385,6** ming so'mni (110,0 %), Ellikqal'a tumanida **2274,4** ming so'mni (104,9 %) va Xo'jayli tumanida **2230,1** ming so'mni (102,9 %) tashkil etgan bo'lsa, Bo'zatov tumanida **1659,2** ming so'mni (76,5 %), Qorao'zak tumanida **1708,8** ming so'mni (78,8 %) va Mo'ynoq tumanida **1757,0** ming so'mni (81,0 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



Sanoat iqtisodiy faoliyat turida **39** ta korxonada **14125** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 9,0 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **166,9** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 13,3 %ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **3940,1** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 4,8 %ga o'sdi.

Sanoat iqtisodiy faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-mart; kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **7783,7** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 197,6 %) va Taxiato'sh tumanida **4170,8** ming so'mni (105,9 %) tashkil etgan bo'lsa, Chimboy tumanida **1095,6** ming so'mni (27,8 %), Kegeyli tumanida **1150,4** ming so'mni (29,2 %), Xo'jayli tumanida **1611,9** ming so'mni (40,9 %) va Beruniy tumanida **1628,7** ming so'mni (41,3 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida **80** ta muassasada **28625** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 18,2 %)ni xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **175,0** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 14,3 %)ni tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangano'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2037,7** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 2,9 %ga o'sdi.


**Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish
faoliyati boʻyicha oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**
(2021- yil yanvar-mart; kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming soʻm)



Ushbu sohadagi oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi koʻrsatkichini respublika hududlari boʻyicha koʻradigan boʻlsak, yaʼniy oʻrtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Taxtakoʻpir tumanida **2731,1** ming soʻmni (respublikadagi oʻrtacha oylik ish haqiga nisbatan 134,0 %), Qonlikoʻl tumanida **2392,1** ming soʻmni (117,4 %), Nukus shahrida **2358,4** ming soʻmni (115,7 %) va Chimboy tumanida **2333,0** ming soʻmni (114,5 %) tashkil etgan boʻlsa, Xoʻjayli tumanida **935,8** ming soʻmni (45,9 %), Moʻynoq tumanida **1356,6** ming soʻmni (66,6 %) va Boʻzatov tumanida **1808,9** ming soʻmni (88,8 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega boʻlmoqda.



Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2021- yil yanvar-mart; kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turida **78** ta muassasada **2917** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,9 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **47,3** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 3,9 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **5410,5** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 14,1 % ga o'sdi

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **6197,3** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 114,5 %) va Mo'ynoq tumanida **5523,3** ming so'mni (102,1 %) tashkil etgan bo'lsa, Qorao'zak tumanida **2941,0** ming so'mni (54,4 %), Taxiato'sh tumanida **3504,1** ming so'mni (64,8 %) va Xo'jayli tumanida **4248,6** ming so'mni (78,5 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.




**O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish
haqining o'tgan yilning
mos davriga nisbatan o'sish sur'ati**
(2021- yil yanvar-mart; qishloq xo'jaligi va kichik
tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, % da)



Respublika bo'yicha 2021- yil yanvar-mart oylarida 2020- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati savdo sohasida 32,0 %, tashish va saqlashda 18,9 %, bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida 14,1 %, qurilish hamda axborot va aloqa sohalarida 13,2 %, ta'lim sohasida 4,9 %, sanoat sohasida 4,8 % hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 2,9 % ekanligi kuzatildi.



Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2021- yil yanvar-mart; respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **3366,0** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **129,9** %), Qo'ng'iro't tumanida **3240,9** ming so'mni (**125,0%**) va Taxiatosh tumanida **2660,8** ming so'mni (**102,7%**) tashkil etgan bo'lsa, Xo'jayli tumanida **1622,3** ming so'mni (**62,6** %), Bo'zatov tumanida **1780,6** ming so'mni (**68,7** %) va Qorao'zak tumanida **1921,1** ming so'mni (**74,1** %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



**Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha
o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**
(yanvar-mart; qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik
subyektlaridan tashqari, ming so‘m)



	2020- yil	2021- yil	O‘sinh sur‘ati, %
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2425,1	2591,8	106,9
Nukus shahri	3101,7	3366,0	108,5
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	1865,7	2030,8	108,9
Beruniy	1826,6	2025,7	110,9
Bo‘zatov	1785,3	1780,6	99,7
Qorao‘zak	1815,2	1921,1	105,8
Kegeyli	2065,3	2289,5	110,9
Qo‘ng‘irot	2855,1	3240,9	113,5
Qonliko‘l	1906,8	2037,8	106,9
Mo‘ynoq	1876,3	1954,1	104,1
Nukus	2387,9	2282,8	95,6
Taxiatosh	2274,1	2660,8	117,0
Taxtako‘pir	1723,3	2146,6	124,6
To‘rtko‘l	2050,3	2199,5	107,3
Xo‘jayli	2112,7	1622,3	76,8
Chimboy	2023,2	2093,6	103,5
Shumanay	1975,0	2130,5	107,9
Ellikqal‘a	2112,2	2262,6	107,1

Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2020- yildagi "O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4938-sonli Qaroriga muvofiq, joriy yilning 1 fevralidan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 747 300 so'mni tashkil etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi
statistika boshqarmasining
Demografiya va mehnat statistikasi
bo'limi

Tel: (71) 230-92-17, (61) 222-76-57